SUG‘URTA SOHASINI RAQAMLASHTIRISHNING ZURURIYATI VA AHAMIYATI

Rahmatullayeva Muslima Xurshid qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
Nomozova Qumri Isoyevna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

Qabul qilindi: 05.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 06.11.2025
Tasdiqlandi: 07.11.2025
Kalit so‘zlar:
raqamli sug‘urta, raqamlashtirish, sug‘urta bozori, innovatsion texnologiyalar, blokcheyn, sun’iy intellekt, moliyaviy texnologiyalar, O‘zbekiston sug‘urta tizimi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug‘urta sohasini raqamlashtirish jarayonining zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni sug‘urta faoliyatiga joriy etish natijasida xizmatlar sifati oshib, mijozlar bilan ishlashda shaffoflik, tezkorlik va samaradorlik ta’minlanadi. Maqolada sug‘urta kompaniyalarida raqamli platformalar, sun’iy intellekt, “Big Data” va blokcheyn texnologiyalarining qo‘llanilishi tahlil qilinib, ularning iqtisodiy afzalliklari va xavf-xatarlarini baholashga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamlashtirish jarayonining holati, dolzarb muammolari hamda rivojlantirish istiqbollari o‘rganilgan.

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida xizmat ko‘rsatish turlari, jumladan sug‘urta xizmati ko‘rsatish madaniyati yuqori bosqichga chiqmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga 2007 yilda kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar natijasida sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari doirasi kengaydi, ularning huquqiy maqomi qonunda mustahkamlab qo‘yildi.

Bugungi kunda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, «kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash»[Mirziyoev Sh., 2017] dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, bunda sug‘urta xizmati ko‘rsatish sohasini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari sug‘urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug‘urta syurveyerlari, shuningdek assistans hisobiga kengaytirildi. O‘z navbatida, ularning har biri tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sug‘urta bozorini zamon talabiga mos ravishda kengayishiga olib keldi. Zero, respublikamizning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi, o‘z navbatida, milliy qonunchilikka xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalarini

implementatsiya qilish zarurligini ham taqozo etadi. Chunonchi, BMT tomonidan 1994 yil 15 aprelda Marokashda qabul qilingan «Xizmatlar savdosi bo‘yicha Bosh kelishuv»[Generalnoe soglashenie o torgovle uslugami, 1994] nomli xalqaro hujjat sug‘urta xizmatlari moliyaviy xizmatlar tizimiga kirishi, sug‘urta bozorida «retrotsessiya» tushunchasi bo‘lishi lozimligiga oid qoidalarning belgilab qo‘yilganligi buning yaqqol misolidir.

Ammo, xalqaro qoidalarning xorijiy davlatlar sug‘urta qonunchiligiga implementatsiya qilinishi holati, shuningdek iqtisodchi va huquqshunos olimlarning asarlaridagi sug‘urta bozori professional ishtirokchilari va ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bilan qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu borada ham turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Fikrimizcha, ushbu masalani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish o‘rinlidir.

Birinchisi, sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining huquqiy maqomi turli xorijiy davlatlar qonunchiligida turlicha belgilanganligi.

Ma’lumki, mamlakatimiz milliy qonunchiligida sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari sifatida sug‘urtalovchilar, sug‘urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug‘urta syurveyerlari, shuningdek assistanslar tan olinadi. Belarus Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonunida sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari sifatida sug‘urtalovchi, sug‘urta qildiruvchi va sug‘urta vositachilari (agent va broker)[Zakon o straxovanii Respubliki Belarus, 2000] tan olingan bo‘lsa, Litva Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonunida sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tarkibiga sug‘urtalovchi, sug‘urta qildiruvchi hamda sug‘urta vositachilari, Rossiya Federatsiyasining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonuniga asosan sug‘urtalovchi, sug‘urta qildiruvchi, sug‘urta agenti, sug‘urta brokeri hamda sug‘urta aktuariysi kiritilgan bo‘lsa, Qozog‘iston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra sug‘urta bozorining professional ishtirokchilariga sug‘urta (qayta sug‘urta) tashkiloti, sug‘urta brokeri, sug‘urta agenti, sug‘urta qildiruvchi, aktuariy, davlat sug‘urta vakili hamda o‘zaro sug‘urta jamiyatlari[Zakon Respubliki Kazaxstan ot 18 dekabrya 2000 g. N 126-II «O straxovoy deyatelnosti»], Xitoy Xalq Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq sug‘urtalovchi, sug‘urta qildiruvchi, sug‘urta agenti va sug‘urta brokerlari[Zakon Kitayskoy Narodnoy Respublika «O straxovanii», 1995] kiritilgan.

Ikkinchisi, sug‘urta bozorida professional xizmat ko‘rsatuvchi har bir sub’ekt maqomining turlicha belgilanganligi.

Belarus Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, sug‘urtalovchi – «Sug‘urta faoliyatini, shuningdek Qonun bilan belgilanadigan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda ustav, zaxira jamg‘armasi va umumiy summasi besh mingdan kam bo‘lmagan, maxsus tashkil etilgan qayta sug‘urta qiluvchi tashkilotlar uchun esa eng kam oylik ish haqining o‘n besh ming baravaridan kam bo‘lmagan pul shaklidagi zaxiraga ega

bo‘lgan, ro‘yxatdan o‘tkazilgan va sug‘urta qilish yoki qayta sug‘urta qilishning muayyan turini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya olgan davlat sug‘urta tashkilotlari, aksiyadorlik sug‘urta jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan yoki qo‘shimcha mas’uliyatga ega jamiyatlar[Zakon o straxovanii Respubliki Belarus, 2000].

Bulardan tashqari, sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tarkibiga bir qator olimlar ham o‘z nuqtai nazarini bayon etgan. Xususan, V.P. X.Sobirovning ta’kidlashicha, sug‘urtalovchi – yetkazilgan zararni sug‘urta haqidagi qonun yoki sug‘urta shartnomasi asosidagi shartlarni ko‘zda tutib qoplashni o‘z zimasiga oluvchi tashkilot[Sobirov. H., 1998]. O.Artiqovning nazarida «sug‘urtalovchi – sug‘urta qiluvchi (sug‘urtaga oluvchi) shaxs yoki idora, u o‘z zimmasiga ma’lum mukofot evaziga sug‘urta qildirgan kishiga, idoraga sug‘urta hodisasi yuzaga kelganda shartnoma asosida yetkazilgan zararni to‘lash majburiyatini oladi[Artiqov O., 1996], A.P.Arxipov, V.B.Gomellya va D.S.Tulentilarning fikricha, «sug‘urtalovchi – Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga asosan sug‘urtalashni, qayta sug‘urtalashni, o‘zaro sug‘urtalashni amalga oshirish maqsadida tuzilgan va sug‘urta to‘g‘risidagi qonunda o‘rnatilgan tartibda litsenziya olgan yuridik shaxsdir. Sug‘urtalovchilar sug‘urta tavakkalchiligini baholashni amalga oshiradilar, sug‘urta mukofotlarini (sug‘urta badallarini) oladilar, sug‘urta rezervlarini shakllantiradilar, yetkazilgan zarar yoki ziyonning hajmini belgilaydi, sug‘urta to‘lovlarini to‘laydi, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq boshqa harakatlarni amalga oshiradi»[Arxipov A.P., Gomellya V.B., Tulenti D.S., 2006].

Yuqorida berilgan ta’rif va tushunchalarni tahlil qilish, ijobiy tomonlarini o‘rganish hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining umumiy mazmun-mohiyatidan chetga chiqmagan holda «sug‘urtalovchi»ga quyidagicha ta’rif berish mumkin: «Sug‘urtalovchi – O‘zbekiston Respublikasi hududida tegishli turdagi sug‘urtani amalga oshirish uchun belgilangan tartibda litsenziyaga ega bo‘lgan va sug‘urta qildiruvchi bilan sug‘urta shartnomasini imzolagan hamda unga sug‘urta mukofoti evaziga sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta tovoni to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs».
Bundan tashqari, «sug‘urta vositachisi» tushunchasiga iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda ham turlicha yodashuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Jumladan, sug‘urta vositachisi faoliyati iste’molchiga sug‘urta xizmatini ko‘rsatishga qaratilgan professional bozor qatnashchisi ekanligi, sug‘urta vositachilari orasida sug‘urta agenti hamda sug‘urta brokeri farqlanishi mumkinligi[Turbinay K.E., 2003], sug‘urta agenti, sug‘urta brokeri, adjasterlar va syurveyrlar sug‘urta vositachisi bo‘lishi mumkinligi, ular sug‘urta shartnomasining qatnashchilari hisoblanmasligi va bu o‘rinda ularning vazifasi sug‘urtachi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasidagi sug‘urta xizmatini harakatga keltirish, sug‘urta shartnomasini tuzish hamda bajarilishiga yordam berish ekanligi[Spletuxov Y.A., Dyujikov. Ye.F.Straxovanie., 2005], sug‘urtalovchi nomidan va uning topshirig‘iga ko‘ra

sug‘urta shartnomasini tuzadigan sug‘urta tashkilotining shtatida turmaydigan xodim ekanligi[Gvozdenko A.A., 2001] kabi qarashlar mavjud.

Shuningdek, «sug‘urta agenti» iborasiga olimlar tomonidan berilgan hamda xorijiy davlatlarning qonunlarida o‘z aksini topgan ta’riflarda umumiy nuqtai nazar mavjud. Ammo «sug‘urta agenti»ga «shtatdan tashqaridagi ishchi» deb ta’rif berish hollari ham uchrab turadi. Fikrimizcha, «shtatdan tashqaridagi ishchi» faqatgina jismoniy shaxsga xos bo‘lgan tushunchadir. Lekin milliy qonunchiligimiz va aksariyat davlatlarning qonunchiligida «sug‘urta agenti» tushunchasi yuridik shaxsni ham qamrab olgan. Albatta, «sug‘urta agenti» tushunchasi faqat jismoniy shaxs bilan cheklanib qolmasligi zarur. Holbuki, bozor iqtisodiyoti sharoitida «yuridik shaxs» maqomiga ega bo‘lgan sug‘urta agentlarining faoliyat ko‘rsatishi tabiiy holdir.

Shuningdek, sug‘urta vositachisi tarkibiga kiruvchi «broker» iborasiga ham turli davlatlarning qonunlarida, olimlarning asarlarida turlicha ta’riflar berilgan. Ukraina davlatining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonunida sug‘urta brokeri – tadbirkorlik faoliyati sub’ekti sifatida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan va o‘z nomidan mukofot evaziga sug‘urtalanuvchi sifatida sug‘urtaga ehtiyoj sezgan shaxs bilan brokerlik asosida sug‘urtada vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki fuqaro. Sug‘urta brokerlari – sug‘urta to‘lovlari va sug‘urtani qoplamalarini olishga va qayta hisoblashga haqli bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati sub’ekti sifatida o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolar[Zakon «O straxovanii» Ukraini, 2000].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz milliy qonunchiligidan farqli o‘laroq, aksariyat davlatlarning sug‘urta qonunchiligida jismoniy shaxslar ham «sug‘urta brokeri» maqomida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin. Shu bois yakka tadbirkorlarning sug‘urta brokeri maqomiga ega bo‘lishi masalasini muhokama qilish dolzarb vazifadir. Xususan, M.O.Shishxanovning fikricha, «sug‘urta brokeri (insurance broker) – sug‘urta vositachisi, u mijozlar (sug‘urtalanuvchilar)ga maslahat beradi, ularning nomidan sug‘urta shartnomasini tuzadi. Sug‘urta brokeri sug‘urta qonunchiligi sohasida va amaliyotida ekspert bo‘lishi kerak. Professional sifatida u sug‘urta to‘g‘risidagi barcha imkoniyatlarni bilish va uning bilimi sug‘urta uchun va prinsipialga beriladigan mukofot stavkalari uchun eng yaxshi shart- sharoitlarni ta’minlashga yordam berishi lozim. Sug‘urta brokeri sug‘urtachining emas, balki sug‘urtalanuvchining agenti hisoblanadi. Sug‘urta brokeri sug‘urtachi oldida yuridik javobgar hisoblanmaydi, lekin bu ma’naviy javobgarlik (good faith)ni istisno qilmaydi. Cug‘urta brokeri sug‘urtachining to‘lov imkoniyatiga kafillik bermasligi kerak va zararni to‘lash hamda mukofotni qaytarish uchun javobgar hisoblanmasligi lozim»[Shishxanov M.O., 2006]. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur yuridik xatti-harakatlar ko‘proq jismoniy shaxsga taalluqlidir. Nazarimizda, mamlakatimiz milliy qonunchiligida «sug‘urta brokeri»ga berilgan ta’rifga «jismoniy shaxs» iborasini kiritish, o‘z navbatida, mamlakatimizda yakka

tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarga sug‘urta brokeri maqomida erkin faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratar edi.

Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari qatoriga kiritilgan yangi atama – «adjaster» terminiga ham turli manbalarda turlicha yondashuvlar va izohlar berilgan, «bu (ingl. post – graduate; rus. adjaster) hisob-kitobni tuzish bo‘yicha mutaxassis»[Ortiqov A., 1996], «sug‘urta hodisalari yuz berganda yetkazilgan zararni baholovchi mutaxassis»[Arxipov A.P., Gomellya V.B. va Tulenti D.S., 2006, «sug‘urta hodisalari yuz berganda, sug‘urtachi bildirgan e’tirozlarni tartibga solish bo‘yicha masalalarni hal etishda sug‘urta kompaniyalari manfaatlarini himoya qiladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Adjaster sug‘urtachi bilan sug‘urtalanuvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomadagi sug‘urtachi majburiyatidan kelib chiqib to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi miqdori to‘g‘risida sug‘urtalanuvchi bilan kelishuvga erishish uchun harakat qiladi»[Portal «Glossariy.ru»]. Yana bir manbada «Adjaster – dispash bo‘lib, u umumiy avariyada yetkazilgan zararni kema, yuk va kira puli o‘rtasida taqsimlash yuzasidan hisob-kitobni tuzish bo‘yicha mutaxassis (masalan, dengiz sug‘urtasida) hisoblanadi. Rossiyada bu vazifani Savdo-ishlab chiqarish palatasi qoshidagi Dispasherlar byurosi bajaradi»[Portal «F-polis»] kabi ta’riflar berilgan. Mazkur ta’riflarning mazmun- mohiyati, shuningdek MDH davlatlari qonunchiligidagi «adjaster» tushunchasiga berilgan ta’riflarning mohiyati milliy qonunchiligimizda[Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunning 92-moddasi, 2007] ham o‘z aksini topgan.

Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tarkibiga kiruvchi navbatdagi yangi yuridik tushunchalardan biri «aktuariy» hisoblanadi. A.P.Arxipov, V.B.Gomellya va D.S.Tulentilarning ta’kidlashicha, «aktuariy – malaka shahodatiga ega bo‘lgan va mehnat shartnomasi asosida yoki sug‘urtalovchi bilan tuzilgan fuqaroviy-huquqiy shartnoma asosida sug‘urta tarifining hisobi, sug‘urtachining sug‘urta zaxirasi, aktuar hisoblardan foydalangan holda, uning investitsion loyihalarini baholash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradigan fuqaro»[3ArxipovA.P., Gomellya V.B. va Tulenti D.S., 2006], «Warton School» sug‘urta va xavf-xatar Departamenti rahbari J.Lemer: «aktuariy – matematik usullardan foydalangan holda biznes, moliya, ijtimoiy sohada murakkab vazifalarni qo‘yish, tahlil qilish va hal qilish yuzasidan tayyorlangan mutaxassis, aktuariy yakka tartibdagi va korporativ xavf-xatarni baholaydi hamda moliyaviy asoslangan sug‘urta va pensiya chizmalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi», Buyuk Britaniyalik K.Deykin: «aktuariy – xavf-xatar va ehtimollarni baholashda muayyan malakaga ega bo‘lgan hamda biznes va moliya muammolari, xususan sug‘urta va demografiya sohalarida tasodifiy hodisalar yuz berganda o‘z qobilyatini qo‘llaydigan shaxsdir» degan fikrlarni bildirgan.

Keltirib o‘tilgan ta’rif va tushunchalar shundan dalolat beradiki, «aktuariy» bugungi kunda jamiyatimizga kirib kelayotgan yangi tushunchalar sirasiga

mansub bo‘lib, unga ta’rif berishda turlicha yondashuvlar mavjud. Nazarimizda, unga yuridik jihatdan quyidagi ta’rifni bildirish mumkin: «Aktuariy – oliy matematik yoki iqtisodiy ma’lumotiga ega, aktuar hisoblash sohasida mutaxasis bo‘lgan jismoniy shaxs».

Yuqoridagi xorijiy davlatlarning sug‘urta to‘g‘risidagi qonunchiligi hamda olimlarning fikr-mulohazalari asosida ilgari surilgan mazkur ta’rifni milliy qonunchiligimizda ifodalash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Sug‘urta bozorining so‘nggi professional ishtirokchisi «syurveyer»ga ham yondashuvlar turli-tuman. Jumladan, «syurveyer (ingl. surveyor) – kemalar va yuklarni ko‘rib chiqishni amalga oshiruvchi ekspert. U kemalar va yuklarning ahvoli, talofatga uchragandan so‘ng yetgan zarar, kemaning dengizda suza olish qobiliyati va boshqalar haqida xulosa chiqaradi. Syurveyer kema sohibi, fraxtachi, yuk egasi, sug‘urta jamiyatlari tomonidan taklif qilinishi mumkin. Sug‘urta qilingan ob’ektni tekshiruvchi syurveyer yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lishi, tegishli ob’ekt haqidagi hujjatni malakali rasmiylashtirishga yoki halokat sertifikatini tuzishga layoqatli bo‘lishi lozim. Chunki u bilan bog‘liq hujjatlar sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan sud nizolari yoki yetkazilgan zararni qoplash bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda asos bo‘lishini nazarda tutmoq lozim»[Yuridik ensiklopediya, 2001], A.P.Arxipov, V.B.Gomellya va D.S.Tulentilar fikricha, «syurveyer – sug‘urtaga qabul qilinadigan mulkni ko‘zdan kechirish va baholashni amalga oshiradigan sug‘urtachining yuqori malakali vakili. Syurveyerning xulosasiga ko‘ra, sug‘urtachi sug‘urta shartnomasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Xorij amaliyotida syurveyer sifatida malakali jamiyat, shuningdek shartnoma asosida sug‘urtachi bilan hamkorlik qiladigan yong‘in xavfsizligi, mehnat muhofazasi va boshqalar bo‘yicha ixtisoslashgan firmalar maydonga chiqadi. Adjasterdan farqli o‘laroq, syurveyer mulkni sug‘urta shartnomasi tuzilgunga qadar ko‘zdan kechirib chiqadi»[Arxipov A.P., Gomellya V.B. Tulenti D.S., 2006]. Boshqa manbalarda esa «bu sug‘urta qilinuvchi yoki sug‘urtalovchi iltimosiga ko‘ra, kemalarni va yuklarni ko‘zdan kechirishni amalga oshiradigan hamda ularning holati haqida xulosa beradigan ekspert»[Gvozdenko A.A., 2001], «sug‘urta qilingan mulkni ko‘zdan kechirish bo‘yicha ekspert yoki agentdir»[Reytmana L.I., 1992], «sug‘urtalashga olinadigan mulkni ko‘zdan kechiradigan, uning qiymatini va maqbul sug‘urta summasini belgilovchi ekspertlar»[Spletuxov Y.A., Dyujikov Ye.F., 2005], degan nuqtai nazarlar ilgari surilgan. Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilaridan biri bo‘lmish «assistans» maqomi ham milliy qonunchiligimizda [O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni, 2002] o‘z aksini topgan bo‘lib, bu borada xorijiy davlatlarda ham o‘xshash ta’riflarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Chexiya Respublikasining «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonunida «assistans – sayohatga chiqqanda yoki doimiy yashash joyidan uzoqda bo‘lganda murakkab vaziyatlarga tushib qolgan shaxslarga ko‘rsatiladigan yordam»[Zakon «O straxovanii»

Respubliki Chexii] deb ta’kidlangan. Ilmiy adabiyotlarda «assistans zarur bo‘lganda sug‘urta shartnomasi doirasida ko‘rsatiladigan texnik, tibbiy va moliyaviy xizmatlar, yordamlar ro‘yxatidir. Chet ellarga borgan sayohatchilarning xavfsizligini vrachlar, sanitarlar xizmat ko‘rsatishi, tibbiy statsionarga yotqizish (ob’ektiv sabablar bo‘yicha), maxsus sanitar transportini tashkil qilish orqali ta’minlovchi (kasal bo‘lganida, baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda) maqsadli gumanitar harakatdir. Sug‘urta kompaniyalari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bir qator maxsus asistans kompaniyalari mavjud» degan tushunchalar berilgan.

Xulosa qilib aytganda, sug‘urta sohasida ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutuvchi qoidalarni zamon talablariga mos holda takomillashtirib borish mamlakatimiz sug‘urta sohasida raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni zaruriy shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi. (2023). O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha hisobot. Toshkent.

Karimov, I.A. (2016). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

Raxmonov, B. (2022). Sug‘urta tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari. “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali, №5, 62–70.